

**LIRIK ASARLARNI O'QITISHDA FANLARARO ALOQANI YO'LGA QO'YISHNING
ZAMONAVIY METODIKASI***Mahmado'stov Abdulla**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent**davlat o'zbek tili va adabiyoti**universiteti Masofaviy ta'lim kafedrasи**o'qituvchisi**abdullamahmadustov@gmail.com**Tel:+998945774244*

Annotatsiya: Ushbu maqola 6-sinf o'qish kitobining zamonaviy talablar darajasida takomillashtirish to'g'risida bo'lib, unda o'quvchilarni o'quv jarayonining faol ishtirokchilariga aylantiradigan, o'quv vaqtini oqilona ishlatishga hissa qo'shadigan va, eng muhimmi, o'quvchilarning bilimini chuqurlashtiradigan, o'quv materiallarini yuqori darajada o'zlashtirishni ta'minlaydigan, ta'lim mazmunini yaxshilash uchun qulay shart-sharoit yaratadigan lirik asarlarni o'qitishda fanlararo aloqani yo'lga qo'yishning zamonaviy metodikasi haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: fanlararo aloqa, integrativ dars ,adabiyot ,geografiya, tilshunoslik , psixologiya,tarix.

Lirik asarlarni o'qitishda fanlararo aloqani yo'lga qo'yishning zamonaviy metodikasini ishlab chiqish bugungi dolzarb masalalardandir. Badiiy asardagi adabiy voqelikni teran aks ettirish bilan yoshlarning ruhiy-ma'naviy kamolotga erishuvi yo'llarini yanada oydinlashtirish kun tartibidagi vazifalardandir. Adabiy asar yoshlarda milliy qahramonning ongi va tafakkuriga, undagi gumanistik g'oyalarning shakllanishiga yordam beradi. Hozirda mustahkam irodali va sog'lom fikrli shaxsni, ya'ni barkamol avlodni etishtirish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish yo'llarini qidirish zarur.

Darhaqiqat, har qanday badiiy asarning o'zani hayotga yo'naltirilgan bo'ladi. Adabiyotning asosiy manbasi hayotdir. Nuqtai nazarimizni qaratsak, badiiy asarning mohiyatini uning kompozitsiyasi syujeti va fabulasining shakllanishida jamiyat va ijodkor orasidagi bog'liqlik ahamiyatlidir.

Adabiyot darslarida, aynan, shunga o'xhash munosabatlar talqinini ongli tarzda amalga oshirish zarur bo'ladi. Adabiyot o'qitishning integrativ holatini doimo nazarda tutish lozimki, har qanday ijodkorning amaliy faoliyati va badiiy asarni yozishda an'anaviy usullardan foydalanish mifik yoshidagi o'quvchilarni badiiy adabiyotdan bezdirishi, ularning kitobga munosabatini susaytirishi mumkin. Bunaqa an'anaviyliklardan xalos bo'lish uchun o'qituvchi badiiy adabiyotni bilishi, tushunishi, bevosita hayot bilan bilan bog'liq tarzda tadqiq va tahlil etishi lozim. Jarayondagi mavjud asar voqealari bilan hayotdagি muammolarni atroflicha tahlil qilib, kun tartibidagi bu muammolarning badiiy asar bilam mushtarak jihatlarini atroflicha o'rganish kerak. Ularni hal etish uchun to'g'ri xulosalar chiqara olgan o'quvchida hayotga tiyran ko'z

bilan qarash tuyg'ulari shakllanadi. Shuning uchun ham bu jarayondagi yangiliklardan boxabarlik, fanlararo munosabatlarni amaliyotga tattbiq etish juda muhim masalalardandir.

Adabiyotni, xususan, badiiy asarlarni o'qitish hech qachon tayziq ostida bo'lmasligi zarur. Shunday ekan, adabiy asarlarni o'rganish jarayonida yoshlarda mustaqil va to'g'ri fikrlashni shakllantirish hal etilishi lozim bo'lgan birinchi galadagi vazifa hisoblanadi.

6-sinf adabiyot darsligidagi lirik asarlar orasida tarix fani bilan aloqadorlikda o'rganilishi lozim bo'lgan asarlar ham bor. Unda o'z joyini urush maydonlarida deb bilgan Musa Jalil jangchilar o'rtaida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini olib borgani haqida ma'lumotlar uchraydi.

Ikkinchi jahon urushi deb ataluvchi tarixiy urush Musa Jalilga askarlik kiyimini kiydirish bilan birga, uning she'rlariga jangovar ruh va dard bag'ishladi. Urush yillarida fashistlar konslagerida azob-uqubat tortgan vatanparvar shoир dashmanga taslim bo'lindi. U asirlarning yashirinchada tashkilotiga rahbarlik qildi. Keyinchalik "Moabit daftari" nomi bilan mashhur to'plamga kirgan g'oyaviy-badiiy she'rlarini yozdi. Musa Jalilning "Moabit daftari" to'plami o'zbek tiliga tarjima qilinib, alohida kitob shaklida nashr ettirilgan.

Urushga taalluqli gazetalarda harbiy muxbir sifatida turli xabar, maqola va badiiy asarlar bilan faol ishtirok etgani haqida ma'lumotlar bor. Bu holat bevosita tarix bilan ham bog'liq jarayon. Shoирning shu yillari nashr etilgan "Okopdan xatlar" nomli kitobiga jamlangan she'rlaridan 6-sinf adabiyot darsligida tahlillar bor. Frontda bo'layotgan urushning butun dahshati ro'yirost tasvirlanib, shoир talqinida go'zal ifoda etilgan.

Jahon urushi davri, yani 1942-yilning yozida Volxov daryosi bo'yida kechayotgan shiddatli jang paytida Musa Jalil og'ir yaralanadi va dushman qurshoviga tushib qolishiga bag'ishlangan she'rlari dardli poetik ifoda bilan tasvirlanadi. U fashistlar qo'liga tirik taslim bo'lgandan ko'ra o'limni afzal bilardi. Ammo:

Taqdir kului, o'lim tegmasdan

O'tib ketdi, qilmadi jur'at.

Netay, axir so'nggi minutda

Pistoletim qildi xiyonat...

Netay, axir do'st pistoletim

So'nggi so'zdan to 'sat bosh tortdi.

Kishan soldi dushman qo'limga

Va erksizlik qa'rige otdi.

(«Kechir, yurtim!» she'ridan)

O'sha kundan boshlab, shoirning tutqunlikdagi mashaqqatli hayoti boshlanadi. U fashistlarning turli qamoqxonalarida chidash mumkin bo'lmagan qynoqlarga solinadi. Xo'rlik va haqoratlarni, o'ta mashaqqatli tazyiqlarni boshdan kechiradi. Ruhan matonatli, chidamli ijodkor turfa millat va elatlardan iborat mahbuslar orasida o'zining dushmanga nafrat, kelgusi ozod va yorug' kunlarga ishonchi bilan yo'g'rilgan da'vatlari, she'rlari ila taniladi.

Uning bu badiiy faoliyatidan xabar topgan fashistlar, nihoyat, shoirni Berlinga olib kelib, eng katta Moabit turmasining zax va qorong'i bir kishilik xonasiga tashlashadi. Bu holat o'quvchi ko'z o'ngida hozirgi kuniga shukronalik hissini paydo qiladi. Dushman tomon uchun unaqa sog'lom fikrli da'vatkor dushman kerak emasdi.

Urushdan keyin Moabit turmasidan qutulib chiqqan belgiyalik partizan Andre Timmermans ismli kishi Brussel (Belgiya)dagi konsulxonaga she'rlar bilan to'lgan bir yon daftarni olib keladi. U mazkur daftar qamoqxonadagi yaqin do'sti, tatar shoiri Musa Jalilga tegishli ekanini aytib, ijodcoming o'zi fashistlar tomonidan vahshiylarcha o'ldirilganini so'zlab bergani manbalarda keltirilgan. Daftardagi Musa Jalilning o'limi oldidan yozib qoldirgan quyidagi vasiyatni ham 6-sinf adabiyotida keltirilgan edi:

“Tatarcha yozuvni taniydigan va bu daftarni o'quvchi do'stga. Bularni tatarlarning taniqli shoiri Musa Jalil yozib qoldiradi, deb yozadi. Uning tarixi quyidagicha, 1942-yilda urushga ketib ham ... asirlikda ko'p azoblar tortib qirq o'limdan qolib, oxirida Berlinga keltiriladi. Berlinda yashirin siyosiy uyushmada qatnashuvda ayblanib qo'lga tushdi va turmaga qamaldi. Balki uni o'lim jazosiga hukm etarlar. U o'lar. Ammo uning asirlikda va tutqunlikda yozgan 115 she'ri bor. U shular uchun qayg'uradi. Shuning uchun 115 she'rning 60 tasini o'lsa hamki, ko'chirib qoldirishga tirishdi. Ammo bu kitob qo'lingga tushsa, she'rlarni yaxshilab diqqat bilan oqqa ko'chirib saqla, ham urushdan so'ng Qozonga xabar qilib, tatar xalqining marhum shoirining she'rlari deb nashr ettir. Mening vasiyatim shu”!

Musa Jalil, 1943-yil dekabr». Bu vasiyatnomasi yozilganidan keyin oradan bir oy o'tib 1944-yilning yanvarida tatar xalqining asl farzandi fashistlar tomonidan qatl etildi.

Maktabning 6-sinf adabiyot darsligida Musa Jalilning adabiyotga qo'shgan hissasi hamda ijodini tarixiy-qiyosiy metod orqali o'rganilishi ochiqlangan. Darslikdagi savol-javoblar ham bolalarning fanlarni integratsiyalash orqali o'rganilishini ta'minlaydi. Masalan: 1. Musa Jalilning hayoti va ijodi qanday davrda kechdi? Juda mashaqqatli urush davri edi. Asir tushgani haqada va ozodlik hamda erk haqidagi she'rlari ko'z o'ngidan o'tadi. 2. Shoirning serqirra faoliyati o'z ichiga nimalarni qamrab oladi? Darslikdagi bu savol ham tarixiy faktlar bilan qiyoslanib fanlararo integratsiyani yuzaga keltiradi. 3. “Moabit daftari”ning yaratilish tarixini so'zlab bering. Bu topshiriq ham o'z-o'zidan Maabit turmasi bilan bog'liq. Ya'ni shu topshiriqdan adabiyot, geografiya, tilshunoslik, psixologiya va tarix fanlarining o'zaro komparativistik holatini kuzatish mumkin.

1. adabiyot – badiiy asar nomi;
2. geografiya – Germaniyadagi turma nomi;
3. tilshunoslik – toponimika, joy nomi o'rganiladigan yo'nalish;
4. psixologiya – mahbusning ruhiy holati ijodida aks etishi bilan bog'liq hodisa;
5. tarix – urush davri jarohatlarini o'zida aks etirgan tarixiy jarayon guvohi.

Darhaqiqat, Musa Jalilning «Moabit daftari»da kuylangan erkin hayotga chanqoqlik, insoniyatning baxtli kelajagiga ishonch hissi uning har qanday o'limni dog'da qoldirganidan yorqin dalolatdir. Shu daftardan o'rinn olgan "Qushcha" she'rida ham qamoqxonaning tikanli simiga kelib qo'ngan erkin qushchaga murojaati aks etgan:

Uch, qushcha, hur

Qo'shig'im bo'lib! -

Shudir sendan so'nggi tilagim.

Tanim qolsin bunda (Tan nima?)

Ona yurtga borsin yuragim, - deya kuylagan edi. Uning o'lim oldidan qilgan orzusi ro'yobga chiqqandek. Shoir she'rlarida ifoda etilgan o'tli tuyg'ular, go'zal insoniy hislar nafaqat yurti va o'z yurtdoshlari, balki jahonning ko'plab xalqlari yuragiga yetib bordi, millionlab qalblarda aks sado berdi. Jumladan, tarjimon – Mamarasul Boboyev o'zbek kitobxoni uchun "Moabit daftari" to'plamini va boshqa asarlarini o'zbek tiliga o'girib, adabiyot ixlosmandlarini quvontirdi.

Adabiyotlar

1.<https://www.google.com/url?q=https://www.lex.uz/uz/docs/3153714%3FONDATE%3D28.04.2021&sa=U&ved=2ahUKEwjW1fyxu6z2AhWIrosKHdXFC9EQFnoECAQQAg&usg=AOvVaw0ccVepCIH2XIVsxSVBwHKe>

2.<https://studfile.net/preview/1725742/page:38/#1725742>

3.Зуннунов А., Алиев А. Адабиётни бошқа гуманитар фанларга боғлаб ўрганиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б.72.

4.Абдуллаев К. Алишер Навоий ҳаёти ва ижодини ўргатиш жараёнида фанлааро интеграциядан фойдаланиш. – Тошкент: 2021. – Б.31.